

DILDORA TOSHEVA

BEG‘UBOR
DUNYO

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2012

UDK: 821.512.133-3

BBK: 84 (50'zb)7

T-71

Tosheva Dildora. Begʻubor dunyo/ Hikoya va qatralar. T.: «Yangi asr avlodi», 2012. - 24 b.

ISBN 978-9943-08-890-0

Yosh ijodkor Dildora Toshevaning nasrdagi urinishlarida izlanish, harakat, oʻziga xoslik bor. Tengdosh oʻquvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Dildoraning mazkur kitobchasi yosh oʻquvchilarga manzur boʻladi, degan umiddamiz.

UDK: 821.512.133-3

BBK: 84 (50'zb)7

ISBN 978-9943-08-890-0

© Dildora Tosheva, «Begʻubor dunyo». «Yangi asr avlodi», 2012-yil.

USHALMAGAN ORZULAR

Havo ochiq. Choyxona eshigi oldida To'fqin aka ikki-uchta ulfati bilan suhbatlashib, ulardan suyunchi olyapti:

– Suyunchi ber, Turg'un, suyunchi ber. Shuncha yillik iltijolaring Tangrimda yetib boribdi. Tangriga ming bora shukr. Yaqinda farzandli bo'laman!

Ulfatlar xursand bo'lishib choyxonada osh qilishdi.

To'fqin akaning sevinchi ichiga sig'masdi.

Nihoyat, orziqib kutilgan vaqt kelib, Surayyo qiz ko'ribdi. To'fqin aka o'g'il bo'ladi deb o'ylagan edi. Ko'nglini cho'ktirmay, chaqaloqqa Yulduz deb ism qo'yishdi. Yulduzdek hamisha porlab tursin deb niyat qilishdi. Oradan ancha yillar o'tdi. Ota-onasi Yulduzni oq yuvib, oq tarashdi. Yulduz ham ancha katta bo'lib qoldi. Qishloqdagi Samadboyning o'g'li Tursun Yulduzga ko'ngil qo'ydi. Yulduz ham unga befarq emas edi. Ular har kun eski bir tolning yonida uchrashishar, miriqib suhbatlashishar edi. Yulduzning onasi Surayyo bundan xabar topib, tezda To'fqin akaga aytdi.

To'fqin akaning jahl bilan qizini yoniga chaqirdi:

– Qizim, Samadboyning o'g'li bilan uchrashayotgan emishsan... Shu to'g'rimi?

Yulduz «Ha» deganday jim turardi.

To‘lqin aka bir oz sukut saqlab so‘ng dedi:

– Yulduz, axir senga sovchilar kelayapti.

Bunday yurishlarga nuqta qo‘y. Yana Samadboyning o‘g‘li bilan... Onasi, sen ham biror narsa degin. Qizingga tushuntirsang-chi axir...– To‘lqin akaning g‘azabi qo‘zg‘adi.

Surayyo opa sekin gap boshladi:

– Yulduz, dadang Turg‘un aka bilan necha yillik do‘st. Uning o‘g‘lidan ham sovchilar bor axir... Biz ularga yo‘q deyolmaymiz... Bundan tashqari dadang Samadboy bilan quda bo‘lolmaydi, eskidan qolgan kelishmovchiligi bor. Buyog‘ini o‘zing bilasan.

– Yoshligingdan yuvib-tarab katta qilgan ota-onangni gapini ikki qilmassan, degan umiddamiz, – To‘lqin aka bir oz jahlidan tushdi, – Yulduz, unaqangi o‘tkinchi narsalarga xayolingni berma, Tursun bilan boshqa uchrashmaysan, – dedi qat‘iy ohangda.

Yulduz ichkariga kirib ketdi. Surayyo qizini ovutmoqchi edi, To‘lqin aka «indama» deganday ishora qildi. Yulduz ichkariga kirib, Tursun bergan atirgulni derazadan otib yubordi. Oradan bir oz vaqt o‘tdi. Yulduz tezda tashqariga chiqib atirgulni qidira boshladi. Gulzordan endi atirgulni topgan edi, shu payt bir yigit, «Kechirasiz, ismingiz Yulduzmi?» – deb qoldi.

Yulduz bir oz jilmayib, «ha», – dedi.

Yigit xursand ohangda soʻzida davom etdi:

– Mening ismim Zafar. Tanidingizmi?

Yulduz bir oz oʻychan turib, «Turgʻun akaning oʻgʻlimisiz» – dedi.

– Ha, har qalay yodingizda ekanman. Yoshligimda sizlarnikiga koʻp kelar edim, Laylo ham esingizdami, mening singlim.

– Qoʻngʻiroqsoch qizaloqmi? Uni yoddan chiqarib boʻlarkanmi, «R bilan Gʻ ni» aytolmasdi. Oʻzi yaxshi yuribdimi? – Yulduz ham beixtiyor savolga javob berib, suhbatlasha boshladi.

– Yaxshi yuribdi.

– Oʻzingiz-chi? Uydagilar... Surayyo xolam, Toʻlqin amakim yaxshi yuribdilarmi?

– Yaxshi, rahmat...

* * *

Zafar bilan Yulduz eski tolning tagida oʻtirishibdi. Bir oz sukutdan soʻng Zafar gap boshladi.

– Eh! Qanday chiroyli joylar!...

– Gapingiz toʻgʻri. Men bu yerga avvallari ham kelardim... – dedi Yulduz xoʻrsingan ohangda.

– Bir oʻzingizmi?

– Yoʻq, haligi... Bir dugonam bilan, – Yulduz nega ochigʻini aytmaganiga oʻzi ham hayron edi...

Tursun shu payt anhor yoniga kelayotgan edi. Qarasa, Yulduz bir yigit bilan suhbat-



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq
versiyasi

<https://kitobxon.com/oz/asar/2159>

saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг
тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/2159>
сайтида.

Это был ознакомительный отрывок.
Полную версию можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/2159>